Jinoyat ishlari bo‘yicha

tuman (shahar) sudlarida ma’muriy huquqbuzarliklarni ko‘rish muammolari



Mamlakatimizda sudlar faoliyatini takomillashtirish va uning mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga asosan sud tizimida 2021-yil 1-yanvardan boshlab sud ishlarini yuritish turlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar umumyurisdiksiya sudlari tashkil etildi.

Farmonga muvofiq ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolati ma’muriy sudlardan jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarga o‘tkazildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ma’muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko‘rishga ixtisoslashtirilgan tumanlararo ma’muriy sudlar tashkil etildi. Shu munosabat bilan tuman (shahar) ma’muriy sudlari tugatildi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari esa saqlab qolindi.



Bundan tashqari, “bir sud – bir instansiya” tamoyili asosida sud ishlarini nazorat tartibida ko‘rish instituti tugatildi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqidagi 2021-yil 4-oktyabrdagi qonunga muvofiq yangi institut, ya’ni yarashilganligi munosabati bilan ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish bo‘yicha alohida tartib joriy qilindi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga muvofiq jabrlanuvchi yoxud uning qonuniy vakili yarashuv to‘g‘risidagi arizani ish vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan ko‘rib chiqilishi vaqtida, shuningdek sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud qaror chiqarguniga qadar berishi mumkin. Arizani qabul qilish chog‘ida vakolatli organ (mansabdor shaxs) va sud jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ish bo‘yicha ish yuritishni qayta tiklash haqida iltimosnoma berish huquqini yo‘qotishini tushuntirishi shart[1].

Yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud muhokamasi ish sudga kelgan paytdan e’tiboran uch kundan kechiktirmay o‘tkazilishi kerak. Demak, yarashuv to‘g‘risidagi ishlarning barchasi sudlar tomonidan ko‘rib chiqilib hal qilinadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra jinoyat ishlari bo‘yicha birinchi instansiya sudlari tomonidan 2020-yilda 30 mingdan ortiq, 2021-yilda esa 47 mingdan ortiq jinoyat ishi ko‘rib tamomlangan bir paytda, shu sudlar tomonidan 2020-yilda 341 mingdan ortiq, 2021-yilda 428 mingdan ortiq ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rib tamomlangan[2].

Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari tomonidan ko‘rilgan ma’muriy huquqbuzarliklar jinoyat ishlariga nisbatan o‘n baravar ko‘p.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarning yuklamasini kamaytirish, ish samaradorligini oshirish maqsadida sudlarning yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatini ma’muriy huquqbuzarlikni rasmiylashtirish vakolatiga ega bo‘lgan organlarning mansabdorlariga berish taklifi beriladi.

Shu bilan birga, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni sudlar tomonidan ko‘rish amaliyoti o‘rganilganda bu sohadagi qonun normalari nomukammalligi, qonunchilikni qo‘llashda sudlarda bir xil yondashuv mavjud emasligi sababli ushbu sohaning qonunchiligini takomillashtirish lozimligi ma’lum bo‘ldi.

Birinchidan, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar sud tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnoma va ishga oid boshqa materiallar olingan kundan boshlab o‘n besh kunlik muddatda ko‘rib chiqilishi nazarda tutilgan, alohida toifadagi ishlarning bir, uch, besh sutka muddatda ko‘rib chiqilishi belgilangan[3].

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarning sudlar tomonidan bunday qisqa muddatlarda ko‘rib, hal qilinishi ayrim hollarda ishlarning to‘liq, asosli hamda adolatli bo‘lishiga muayyan ma’noda o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi.

[1] Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 313[2] моддаси.
[2] https://stat.sud.uz/file/2022/17-01/jinoyat-2021-12oy.pdf.
[3] Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 305-моддаси.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2018-yil 30-noyabrdagi «Sudlar tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rishni tartibga soluvchi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi qarorining 10-bandida sudlar dalillarga, shu jumladan, ishda qatnashuvchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan foto, audio va video yozuvlarga, shuningdek, internet tarmog'idan olingan ma'lumotlarga baho berish uchun mutaxassis jalb qilishi mumkinligi belgilangan.

Biroq muddatlar orasi qisqaligi sudlarning dalillarni mutaxassislarni jalb qilgan holda ko'rib chiqish imkoniyati cheklanishiga sabab bo'ladi. Natijada taraflar sud qaroridan norozi bo'lib, yuqori instansiyalarga murojaat qiladi.

Mazkur yo'nalish bo'yicha, masalan, Rossiya davlatining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish sudyaga kelib tushgandan so'ng ikki oylik muddatda ko'rib chiqilishi belgilangan[4].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 305-moddasiga ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish sudyaga kelib tushgandan so'ng bir oylik muddatda ko'rib chiqilishi to'g'risida norma kiritish lozim.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 308-moddasida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror chiqarilgan shaxs, jabrlanuvchi va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzgan organ o'z hisobidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish to'g'risidagi bayonnomaning ko'chirma nusxasini, shuningdek sud majlisining audio yoki video-yozuvini olishga haqli ekanligi ko'rsatilgan. Biroq sud majlisi bayonnomasi imzolanganidan keyin taraflar shu bayonnoma va sud majlisining audioyozuvi yuzasidan o'z mulohazalarini berish tartibi nazarda tutilmagan. Bu esa taraflarning haqli e'tirozlariga sabab bo'ladi.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 308-moddasiga "sud majlisi bayonnomasi imzolanganidan keyin uch sutka ichida taraflar shu bayonnoma va sud majlisining audioyozuvi yuzasidan o'z mulohazalarini berishga haqlidir" normasini kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 226-moddasida ushlab turish muddati shaxs amalda ushlangan paytdan (erkin harakatlanish huquqining haqiqiy cheklangan payti) e'tiboran ko'pi bilan qirq sakkiz soatni tashkil etishi belgilangan.

Biroq O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 288-moddasi to'rtinchi xatboshisida ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddati huquqbuzarni bayonnoma tuzish uchun olib kelish paytidan boshlanishi ko'rsatilgan[5].

Demak, ushlab turish muddati jinoyat qonunchiligida shaxs amalda ushlangan paytdan e'tiboran o'ta boshlasa, ma'muriy javobgarlik qonunchiligida esa huquqbuzarni bayonnoma tuzish uchun olib kelish paytidan, ya'ni vakolatli organning binosiga olib kelgandan boshlab o'ta boshlaydi.

Fikrimizcha, ma'muriy javobgarlik qonunchiligida ushlab turish vaqtini jinoyat qonunchiligiga moslashtirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, sudyaning ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishiga monelik etuvchi holatlar (rad qilish tartibi) va tartibi Ma'muriy javobgarik to'g'risidagi kodeksda nazarda tutilmagan.

Bu esa sudyaning ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni xolisona ko'rishiga xalaqit berishi mumkin.



[4] Россия Федерациясининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси 29.6-моддаси.
[5] Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 288-моддаси.

Xorijiy davlatlar tajribasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksini quyidagi normalari bilan to‘ldirish taklif qilinadi:

“303²-modda. Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda rad qilish asoslari va tartibi.

Sudya quyidagi hollarda ishni ko‘rishda ishtirok etishi mumkin emas:

1) mazkur ish ilgari ko‘rilganda sudya sifatida ishtirok etgan bo‘lsa;

2) mazkur ish bo‘yicha vakolatli organ mansabdor shaxsi sifatida ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnoma rasmiylashtirgan yoki qaror chiqargan bo‘lsa;

3) mazkur ish ilgari ko‘rilganda unda prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisi kotibi, vakil yoki guvoh sifatida ishtirok etgan bo‘lsa;

4) ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoki vakillarining qarindoshi bo‘lsa;

5) ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug‘diruvchi boshqa holatlar mavjud bo‘lsa.

Ushbu moddada ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lganda, sudya o‘zini o‘zi rad qilish haqida arz qilishi shart. Ishni yakka tartibda ko‘rayotgan sudyani rad qilish to‘g‘risidagi masala sud raisi, bir tarkibli sudda esa shu sudya tomonidan hal qilinadi. Sudyaning o‘zini o‘zi rad qilish to‘g‘risidagi masala sud ajrimida qayd qilinadi”.

Beshinchidan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 274-moddasida ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ochiq ko‘rilishi, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishning tarbiyaviy va ogohlantiruvchi rolini oshirish maqsadida bunday ishlar huquqbuzarning ish, o‘qish yoki yashash joyida ko‘rib chiqilishi mumkinligi belgilangan.

Biroq ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarning huquqbuzarning ish, o‘qish yoki yashash joyida ko‘rib chiqilishida sudyaning xavfsizligi masalalari qonunchiligimizda nazarda tutilmagan. Sayyor sudlarda sudyaning xavfsizligiga tahdid solinishi mumkin.



Shu sababli ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni huquqbuzarning ish, o‘qish yoki yashash joyida ko‘rib chiqilishida sudyaning xavfsizligi masalalari qonunchiligimizda aniq belgilanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Buyuk Britaniya, Kanada, Belgiya va boshqa rivojlangan davlatlarda ma’muriy huquqbuzarlik tushunchasi ishlatilmasdan, balki kam ahamiyatli huquqbuzarliklar deb nomlanib, ushbu toifadagi ishlar alohida sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Fikrimizcha, rivojlangan davlatlarning amaliyotini o‘rgangan holda davlatimizda ham ma’muriy huquqbuzarliklarni ko‘rib chiquvchi alohida sudlarni joriy qilish lozim.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan o‘zgartishlar amalda o‘z ifodasini topsa fuqarolarning huquq va erkinliklarini hamda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlashga xizmat qilgan bo‘ladi.

Dilshod NAIMOV,
Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi